



KEMALAR QABRISTONI

Dilmurodova Malika Bekmurod qizi

TDTrU Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs Yu-5 guruh talabasi

[*dilmurodovamalika@gmail.com*](mailto:dilmurodovamalika@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bir necha yillardan buyon asosiy muammoga aylanib borayotgan va hozirgi kunga kelib deyarli yo'qolish holatiga kelib qolgan – Orol dengizining paydo bo'lish tarixi, yo'qolib borish sabablari, cho'llanishni oldini olishga qaratilgan islohotlar to'g'risida batafsil to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Iqlim o'zgarishi, ekologik vaziyat, qurg'oqchilik, atrof-muhit ifloslanishi, atmosfera, ekologik muammolar.

Hozirgi kunda sayyoramizda inson faoliyatining salbiy ta'siri natijasida atrof muhitda sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, iqlim o'zgarishlari, turli xildagi tabiiy ofatlar yer sayyorasining barcha kengliklarida sezilmoqda. Oqibatda o'rmon bilan qoplangan maydonlar qisqarmoqda, atmosfera, suv va litosfera ifloslanmoqda.

Tabiiy muhit holatining inson ta'sirida o'zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta'sir mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, shu kabi ta'sirlar natijasida mintaqadagi ekologik inqirozning eng xavfli nuqtasi hisoblangan "Orol muammosi" vujudga keldi.

O'tgan asrlarda Orol dengizi haqiqatan ham ulkan va sersuv bo'lgan. Bundan atigi bir necha yil oldin, XX asrning 50-yillarida Qozog'iston va O'zbekiston hududlarida joylashgan mazkur suv havzasining hajmi 68 ming kvadrat kilometrni tashkil etgan. Ulkan suv havzasining bo'yi 428 kilometr, eni esa 283 kilometr, eng chuqur joyi 68 metr bo'lgan. XXI asrning boshlariga kelib esa vaziyat tamomila o'zgardi. Orolning maydoni yildan-yilga tobora qisqara borib, 14 ming kvadrat kilometrga tushib qoldi. Uning eng chuqur joylari 30 metrni tashkil etdi. Bora-bora u bir-biridan ajralgan ikkita alohida ko'lga aylandi. Shimoliysi kichik Orol, janubiysi katta Orol deb atala boshlandi.

Hozirgi kunda Orol dengizining sathi 22 metrga pasayib ketgan. Qurib qolgan Orolning hududi 4,2 million gektarni tashkil qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, Orol dengizi deyarli "o'lik dengiz" ga aylanib bormoqda.



Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida 2023 yil 19 sentabrda soʻzlagan nutqida hozirgi vaqtda dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilayotganligini, sayyoramiz miqyosida uchta inqiroz, yaʼni iqlim oʻzgarishi, bioxilma-xillik yoʻqolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchayayotganligini taʼkidladi. Ana shunday murakkab sharoitda Orol dengizi fojiasiga qarshi kurashni davom ettirayotgan Markaziy Osiyo iqlim oʻzgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanmoqda deya taʼkidlaydi.

Global muammo boʻlgan Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish yoʻlida Oʻzbekiston oʻz imkoniyatlari darajasida harakat qilmoqda. Soʻnggi yillarda Orol dengizining qurigan tubida 1,7 million gektar maydonda qurgʻoqchilikka chidamli oʻsimliklardan iborat yashil hududlar barpo etildi. Bu saʼy-harakatlarimizni davom ettirish uchun xalqaro hamjamiyatning qoʻllab-quvvatlashi juda muhim.

Keyingi 30 yilda mintaqamizda havo harorati bir yarim gradusga koʻtarildi. Bu – dunyodagi oʻrtacha isishdan ikki karra koʻpdir. Oqibatda muzliklar umumiy maydonining qariyb uchdan bir qismi yoʻqolib ketdi. Ushbu tendensiya saqlanib qolsa, yaqin yigirma yilda mintaqamizdagi ikkita yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foizga qisqarishi mumkin. Jon boshiga suv bilan taʼminlanish darajasi 25 foizga, qishloq xoʻjaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foizga kamayishi kutilmoqda.

Aytish joizki, 1960-yillarga qadar Orol dengizi yer sayyorasidagi kattaligi jihatidan toʻrtinchi koʻl boʻlib kelgan. Uning suvlarida baliq juda koʻp edi, qirgʻoqlarida portlar va zavodlar ishlab turgan, odamlar ish bilan taʼminlangan, yon atrofdagi shaharlarda esa hayot qaynagan. Keyin hammasi oʻzgarib ketdi. Salbiy oqibatlar avj ola boshladi. Dengiz qurish pallasiga kelib qoldi.

Orol dengiz maydoni jihatdan dinyoda toʻrtinchi oʻrinda turadi. Tarixga nazar tashlaydigan boʻlsak, Orol dengiziga Markaziy Osiyoning ikki eng katta daryosi-Amudaryo va Sirdaryo suvlari quyilgan. Ushbu daryo suvlaridan qishloq xoʻjaligiga koʻp miqdorda foydalanilishi natijasida 70-yillarda Amudaryoning Orol dengiziga quyilishi toʻsib qoʻyiladi va oqibatda Orol dengizi qurishiga sabab boʻladi.

Orol dengizining qisqarishi natijasida mahalliy aholi salomatligi bilan bogʻliq muammolar yuzaga kela boshladi. Orol dengizi hududining koʻp qismi zarar koʻrganligining asosiy sabablaridan biri „suvdan notoʻgʻri foydalanish“ hisoblanadi. Orol dengizi mintaqasidagi oʻzgarishlar natijasida inson salomatligiga taʼsir qilishi mumkin boʻlgan ekologik taʼsirlarga „suv sathining pasayishi, atrof-muhit va oziq-



ovqat zanjiridagi [pestitsidlar](#), chang bo‘ronlari va havodagi o‘zgarishlar“ misol bo‘ladi.

Dengiz quriganida ifloslantiruvchi moddalar yer yuzasiga chiqib, tuproqqa o‘rnashadi, shu bilan birga havoga tarqaladi. Ushbu ekologik ta’sirlar mahalliy aholi salomatligiga keng ko‘lamli ta’sir ko‘rsatdi. Ko‘pgina kasallik holatlarining ko‘payishi Orol dengizi maydonining qisqarishi bilan bog‘liq. Ifloslantiruvchi moddalardan eng ko‘p zarar ko‘radiganlar: chaqaloqlar va bolalar. Hududda ekologik muhitning o‘zgarishi chaqaloqlar o‘limining oshishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunga kelib Orolning qurib qolgan qismida qolgan tuzlar shamol orqali butun Osiyo hududiga, balki Yevropaga ham yetib borib, atmosferani zararlamoqda. Aynan shu zararning oldini olishga qaratilgan harakatlar boshlab yuborildi. Xususan, Orol dengizining suvi qurigan hududlarida “Yashil qoplamalar” himoya o‘rmonzorlarini barpo qilish bo‘yicha saksovullar ekildi. Nihoyatda sho‘rxok hisoblangan yerlarga tamarid o‘simligi ekildi. Uning gulidan asalarilar odatda nektar yig‘ishda foydalanadi. Natijada, asalarichilikni rivojlantirish imkoniyatlari ham paydo bo‘lmoqda.

Aytish joizki, insoniyat tomonidan tabiatdan oqilona foydalanmaslik bugunga kunga kelib, Orolning qurishi va yo‘qolib ketishi kabi muammolarni keltirib chiqardi. Boshqacha qilib aytganda, tabiat endilikda biz uchun o‘z kuchini ko‘rsatmoqda.

Tabiatni asrash, undan oqilona foydalanish, tabiiy resurslarga nisbatan ehtiyotkorona munosabarda bo‘lish shu zaminda yashayotgan har bir insonning Vatan oldidagi farzandlik burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy insklopediyasi
2. Ekolog.uz
3. Ramazonov B.R., Kuziev R.K. (2020). Soils of the dried part of the aral sea and problems of desertification. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 04 1475-7192.